XALQ DEPUTATLARI SHAYXONTOHUR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr III-22-185-14-205-K/25 Shayxontohur tumani

Shayxontohur tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimligining 2025-yil 26-dekabrdagi 02-3652-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Shayxontohur tuman mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **180 873 804,0 ming soʻm** va xarajatlari esa **180 873 804,0 ming soʻmga** maʼlumot uchun qabul qilinganligi hamda Shayxontohur tuman mahalliy byudjetining shaxsiy gʻazna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l

qoʻyiladigan eng kam miqdori **1 632 175,0 ming soʻm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Shayxontohur tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **1 596 042,0 ming soʻm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Toshkent shahar Kengashining 2025-yil 27-dekabrdagi VII-18-207-14-0-K/25-son qarori 8-bandiga muvofiq:

a) tuman byudjetiga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar;

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar Toshkent shahar mahalliy byudjeti hamda tuman mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

foyda solig‘i Toshkent shahar mahalliy byudjetiga tushgan tushumlardan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 5 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilaridan tashqari);

davlat bojlari;

yig‘imlar;

jarimalar;

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Sayriddinov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mirsamatov), tuman soliq inspeksiyasi (X.Mullajonov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon,

kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Xalq deputatlari Shayxontohur tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yil uchun Shayxontohur tumani mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi III-5-031-14-205-K/24-sonli qarori 2025-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Sayriddinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ABUBAKIROV BOBIR YULDASHOVICH**

Xalq deputatlari Shayxontohur tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-22-185-14-205-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shayxontohur tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/R	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**180 873 804,0**
1	Foyda solig‘i	2 080 641,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	4 371 350,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4 502 953,0
4	Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulkini ijaga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi dekloratsiyasiga asosan olinadigan daromad solig‘i	3 088 400,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 951 660,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 874 740,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	71 184 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 438 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	33 776 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 808 000,0
11	Davlat boji	13 081 200,0
12	Jarimalar	4 037 300,0
13	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar	404 560,0

14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	5 275 000,0

Xalq deputatlari Shayxontohur tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-22-185-14-205-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Shayxontohur tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

(ming so'm)

T/R	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Mablag' miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**180 873 804,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	85 081 834,0
	Mening maktabim jamg'armasi	*2 163 000,0*
2	Madaniyat markazlari	1 329 481,0
3	Musiqa maktablari	7 385 185,0
4	Sport bo'limi	5 247 946,0
5	Iqtisodiyot va moliya bo'limlarini saqlash xarajatlari	2 319 142,0
6	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo'limi Ijtimoiy ko'nikma markazlari xarajatlari	459 129,0
7	Hokimyat	47 271 906,0
	shundan:	
	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi	1 621 200,0
	Madaniyat bo'limi	163 603,0
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi	3 952 518,0
	Tuman hokimligi apparati	8 653 215,0
	Oila va xotin-qizlar bo'limi	3 027 819,0
	Hokim yordamchilari	6 408 509,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	*17 380 000,0*
	"Mahalla budjeti" jamg'armasi mablag'lari	*4 469 000,0*
	Zahira jamg'armasi	*1 596 042,0*
8	Hokimyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	863 415,0
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*65 661,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*797 754,0*
9	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	30 915 766,0

Xalq deputatlari Shayxontohur tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-22-185-14-205-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

№	Tuman nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ij berishdan (deklaratsiya)	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	D
1	Shayxontohur tumani	0%	5%	0%	5%	0%	5

№	Tuman nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar
		Tuman budjetiga				Tuman budjetiga			
		MRI	DSB	MRI	DSB				
1	Shayxontohur tumani	100%	100%	100%	100%	5%	5%	5%	4%